



"MUSTAQILLIK DAVRI SHE'RIYATI" MAVZUSINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Mirzyeva Gulbahor Akramjonovna,

Qobilova Orzigul Mamadaliyevna,

Haydarova Xurshida Shukurovna

Dang'ara tuman 1-son kasb-hunar maktabi

ona tili va adabiyot o'qituvchilari.

Annotatsiya: Mustaqillik davri adabiyotining har bir yaratilgan mahsuli o'ziga xos uslubga ega. Shu bilan bir qatorda istiqlol davri she'riyatining ham o'ziga xos bir qancha jihatlari mavjud bo'lib, mazkur maqolada shu kabi masalalar yoritilgan. Ushbu davr she'riyatining ko'zga ko'ringan ijodkor namoyandalaridan Rauf Parfi, Faxriyor, Abduvali Qutbiddin kabi shoirlarning ijodiyoti misolida mustaqillik davri she'riyatining ahamiyati hamda mazmun- mohiyati ko'rsatib beriladi. Shunindek, O'quvchilarni adabiyotga muhabbat ruhida ulg'aytiruvchi, fanga nisbatan qiziqishlarini oshiruvchi, ularning dunyoqarashlarini kengaytiruvchi metodlar shoirning hayoti va ijodiga doir topshiriqlar misolida ko'rsatib beriladi. Maqolada " Klaster", "Mozaika", "Asar almashdi" usullaridan foydalanishning afzalliklari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: mustaqillik, obraz, detal, ramz, metafra, she'riyat, muhit, kolorit, xususiyat, ishora.

Аннотация: Каждое созданное произведение литературы периода независимости имеет свой стиль. Кроме того, существует несколько уникальных аспектов поэзии периода независимости, и именно такие вопросы освещены в данной статье. Значение и сущность поэзии периода независимости будут показаны на примере творчества таких поэтов, как Рауф Парфи, Фахриёр, Абдували Кутбиддин, которые являются яркими



творческими представителями поэзии этого периода. Так же на примере задач, связанных с жизнью и творчеством поэта, показаны методы воспитания учащихся в духе любви к литературе, повышения их интереса к науке, расширения их мировоззрения. В статье говорится о преимуществах использования методов «Кластер», «Мозаика» и «Обмен».

Ключевые слова: самостоятельность, образ, деталь, символ, метафора, поэзия, среда, цвет, характеристика, жест.

Abstract: Every created product of the literature of the period of independence has its own style. In addition, there are several unique aspects of the poetry of the period of independence, and such issues are covered in this article. The importance and essence of the poetry of the period of independence will be shown on the example of the works of poets such as Rauf Parfi, Fakhriyor, Abduvali Qutbiddin, who are prominent creative representatives of the poetry of this period. Similarly, the methods of raising students in the spirit of love for literature, increasing their interest in science, and broadening their worldviews are shown on the example of tasks related to the poet's life and work. The article talks about the advantages of using the "Cluster", "Mosaic", and "Exchange" methods.

Key words: independence, image, detail, symbol, metaphor, poetry, environment, color, characteristic, gesture.

KIRISH

XX asr o‘zbek xalqining boy madaniyati va badiiy tafakkuri tarixida alohida o‘ziga xos bosqich sanaladi. Bu davrda o‘zbek adabiyotining taraqqiyot yo‘lida realistik tasvir tamoyili yetakchilik qildi; badiiy adabiyot ijtimoiy hayotga, insonlar dardiga yaqinlashdi, qalamga olingan mavzular zamon bilan, mavjud umuminsoniy muammolar bilan bog‘landi. Eng muhimi, XX asr oxirida birorta o‘zbekistonlikning yodidan chiqmaydigan tarixiy voqea sodir bo‘ldi, ya’ni 1991-yil



1-sentabrda O‘zbekiston mustaqillikka erishdi. Barch o‘quv dargohlarida o‘quv yilining birinchi kunida betakror bayramona kayfiyat hukm suradi. Demak, o‘sha voqelikdan keyingi davr adabiyoti «Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti» deb atalishi tabiiy sanaladi. Badiiy ijodning har bir yo‘nalishi – nazm, nasr va dramaturgiya mohiyat e‘tibori bilan mustaqillik davrining mavzulari bilan boyidi. Bu holat o‘zbek adabiyoti tarixida yangi davr boshlanganidan darak beradi.

She‘riyat — she‘riy asarlar majmui. Dastlab she‘riyat deyilganda, umuman, badiiy adabiyot tushunilgan. She‘riyat badiiyatga daxldor sanalgan.

Insoniyat tarixida faqat she‘r shaklida yozilgan bitiklarga so‘z san‘atiga tegishli hisoblab kelingan. Garchi qadim zamonlarda ham nasrga oid asarlar yaratilgan bo‘lsada, ular nafis san‘atga, badiiy adabiyotga tegishli emas, deb qaralgan. She‘rning muayyan ichki tartib asosiga qurilganligi, oddiy so‘zlashuvga o‘xshamasligi, hamma ham fikru tuyg‘ularini bu shakdda ifodalay olmasligi unga qandaydir sirlilik, mumtozlik maqomini beradi. Bunday qarash butun dunyoda hukmron bo‘lgan. Yevropada Uyg‘onish davriga kelibgina nasriy asarlar badiiy adabiyotga tegishli ekanligi tan olingan. Rossiyada 19-asr boshlarida nasriy asarlar ham badiiy adabiyot namunalari sanaladigan bo‘ldi. Musulmon Sharqida esa, nasrni so‘z san‘atiga tegishli, deb hisoblamaslik 19-asr oxirlariga qadar davom etib keldi. Alisher Navoiy „Hayrat ulabror“ asarida chamanzordagi gul kabi go‘zal va tartibli she‘r (nazm)ning tuproqqa qorishib yotgan chechak singari bo‘lgan nasrdan mislsiz darajada ustun ekanligini „Nazm anga gulshanda ochilmog‘lig‘i, Nasr qaro yerg‘a sochilmog‘lig‘i“ va „Bo‘lmasa e‘joz (mo‘jiza) maqomida nazm, Bo‘lmas edi Tengri kalomida nazm“ tarzida ifoda etadi. Shuning uchun ham o‘zbek adabiyoti tarixida Sh. ustuvor o‘rin tutadi. shahrining axborot berish vositasigina bo‘lgan so‘zlashuvdan yoki fikrni tushuntirish yo‘li bo‘lmish ilmiy bayondan



o'zining alohida qurilishi, nutqning odatdagi talablariga bo'ysunmasligi bilan ajralib turishi, kishida hissiyot uyg'otadigan ohangga egaligi ajdodlarimizda unga nisbatan ehtiromli munosabat uyg'otgan. shahriga xos musiqiylik, tartiblilik, shartlilik uni o'z-o'zidan ijodga, badiiyatga daxldor qilib qo'rsatgan. SH. tufayli inson nutqi jarangdor musiqiylik, tugallik, butunlik va uyg'unlik kasb etadi. Chunki shahrida so'zning sehrli jozibasi, odam ruhiyatiga ta'sir ko'rsata oladigan darajadagi ko'tarinkiligi namoyon bo'lgan. Qadimda shahriga ijro etiladigan, binobarin, kishilar tomonidan bevosita idrok qilinadigan hodisa sifatida qaralgan. Minglab yillar mobaynida Sh., asosan, inson tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatish vositasi sanalgani uchun ham uning musiqiyliigi, ohangdorligi va jarangdorligiga alohida e'tibor berilgan. Sh. namunalari faqat mazmuni bilan emas, balki ifoda tarzi orqali ham o'quvchilar va tinglovchilarni rom etgan. Bu hol Sh. namunalarining kuylaydigan darajadagi qat'iy akustik xususiyatlarga ega bo'lishini taqozo qilgan. shahrida muayyan musiqiy zarb (ritm) va qofiya, poetik sintaksis va inversiyalar qo'llanishi so'zlarning harakatchanligi, ohangdorligi va yoqimlilikini ta'minlaydi. Bu hol mazmun tovlanishlariga erishish borasida shahriga tuganmas imkoniyatlar beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mustaqillik davri she'riyati mazmunan yangilanib borayotgan she'riyat sanaladi. Shu bilan bir qatorida, turli she'riy shakllar bo'yicha tajribalar ham qilinadi.

She'rda ta'sir quvvati, har bir shoirning o'z o'quvchisiga o'z aytar so'zi va o'ziga xos uslubi bo'lishi lozim. Bu dunyoga bir qoshiq, berib ketgin, shoirim - Marhumlar uyg'onsinlar, Uxlolmasin tiriklar. (Usmon Azim) Bu o'tkir va o'ziga xos poetik tabiatli to'rt misrada shoir o'z zamondoshlarining badiiy jihatdan yuksak, ta'sirli, umr-boqiy she'rlar yozishga chaqirayotgandek taassurot qoldiradi.



Shunday she'riy namunalarni o'z tarkibida jamlagan o'nlab shoirlarning to'plamlari aynan istiqlol yillarida dunyo yuzini ko'rdi. Mustaqillik yillarida qator katta va yosh avlod ijodkorlarning o'nlab she'riy kitoblari nashr etildi. Tabiiyki, bu she'riy ko'ngil izhorlarida har bir shoirning o'z badiiy olami, mahorati va his-tuyg'ulari aks etgan. O'quvchi jahon shumul o'zgarsihlar davrini o'z ko'zlari bilan ko'rgan katta avlod shoirlari ijodida istiqlolga shukronalik, yo iftixor tuyg'ulari bilan sug'orilgan she'rlarga duch keladi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida nasriy asarlar o'z ko'lami va g'oyaviy - badiiy jihatdan tasvir imkoniyatlarning kengligi bilan ajralib turadi. Nasriy asar uchun har qanday hodisani - u katta yoki kichik bo'lishidan qati nazar - badiiy tasvir vositalari, obrazli tafakkur, insonning barcha ruhiy kechinmalari e'tiboriga ko'ra aks ettirish muhim sanaladi. Epik ko'lamdor roman yoki qissalarni o'qib, ma'lum bir davrning ijtimoiy- tarixiy hayoti, insonlarning turmush tarzi, o'y-kechinmalari, ishqmuhabbatdek bebaho his-tuyg'ularini tasavvur qilish mumkin. Ayni damda badiiy asar o'z muallifining dunyoqarashi, iste'dodi, shaxsiyatining kimligidan ham darak beradi.

Bugungi o'zbek she'riyati kechagi she'riyat emas, balki o'zining ko'pgina, xususan, shakliy-mazmuniy mundarijasiga ko'ra yangilangan poeziyadir. Shu bilan birga, bugungi she'riyat kechagi she'riyatdan uzilib qolgan alohida hodisa ham emas. Ular o'rtasida vorisiylik, uzviylik davom etib kelayotir. Zamonaviy o'zbek she'riyati mumtoz va yangi o'zbek she'riyatining eng yaxshi an'alarini davom ettirgani holda jahon adabiyoti buloqlaridan ham suv ichayapti. Adabiyot kecha dunyoga sots.realizm tuynugi orqali qaragan bo'lsa, bugun uning tafakkur ufqi juda keng. Ayni mana shu keng ufq — badiiy tafakkur erkinligi hozirgi zamon poeziyasini — Istiqlol davri o'zbek she'riyatini vujudga keltirayotgan bosh omildir. Shunga ko'ra, har tomonlama boy she'riyatimizga nazar tashlab, uning bag'rida barcha tamoyillarning izini ko'rish mumkin: realizm, neorealizm, romantizm, simvolizm va bir qator avangard adabiy oqimlarning hayotbaxsh yo'llarida



yaratilayotgan bugungi o‘zbek she’riyati shoir tafakkurining yagona mafkuraviy iskanjadan xoli ekanligidan, boshqacha aytganda, chinakam hurligidan dalolat. Yana, shoirning qaysi yo‘nalishda qalam tebratishi emas (zotan, bugun toza bir yo‘nalishning o‘zi yo‘q, ular o‘z taraqqiyot yo‘llarida bir-biriga ta’sir qilib, sinkretik manzara kasb etib borayotir), balki qanday iste’dod bilan yozayotganligi hamda azaliy muhoraba — zzzgulik va yovuzlik jangida qaysi tomonda turganligi tobora muhim bo‘lib borayapti.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbek adabiyotshunosligida Istiqlol davri o‘zbek she’riyatini o‘rganish bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. B.Nazarov, Q.Yo‘ldoshev, D.Quronov, B.Karim, N.Jabborov, I.Yoqubov, S.Meli, U.Jo‘raqulov singari adabiyotshunoslarning so‘nggi yillarda yaratgan tadqiqotlarida Istiqlol davri she’riyatining o‘ziga xos jihatlari, rivojlanish tamoyillari, uslubiy xususiyatlari tahlil etiladi.

Masalan mustaqillik davri she’riyatini yirik namoyondalaridan biri bo‘lgan Abdulla Oripov ijodini o‘rganish jarayonida quydagi metoddan foydalansa bo‘ladi.

Mozaika" usuli. O‘qituvchi ushbu metoddan foydalanar ekan o‘quvchilarga quyidagicha vazifa beradi: Abdulla Oripov she’rlaridan olingan quyidagi parchalarni ketma-ketlikda bir butun holatda joylashtiring.

1. A. yildirim, yeldim, Yo‘llarda, misoli, yeldim

B. Ellar, boshladi, havas, vodiysiga

D. keldim, Elvagay, boshiga, Hisorning

E. esding, Sen, taraldi, atlas, tanda, siym

F. ochildi, esding, Sen, jamoli, yorning



G. shamoli, O, shamoli, yurtim, yurtim.

1

2

3

4

5

6

She'r nomi:

Bu kabi usullarni dars jarayonida yakka yoki guruhlar kesimida amalga oshirish mumkin. Ushbu metodlar o'quvchilarda erkin fikrlash qobiliyatining shakllanishiga, jamoa bilan ishlashning takomillashuviga, og'zaki va yozma nutqning ravon bolishiga yordam beradi.¹

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ushbu interfaol topshiriqlar o'qituvchilarni ham, o'quvchilarni ham birdek faol bolishga undaydi. Ulardan nafaqat mustaqillik davri she'riyatini, balki boshqa mavzularni o'rgatishda ham foydalanib samarali natijalarga erishish mumkin. Eng muhimi, darslar mazmunli, o'quvchilar uchun qiziqarli o'tadi. O'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish ortadi. Ushbu jarayonning qanday tashkil etilishi esa har bir o'qituvchidan pedagogik mahorat talab qiladi. Badiiy ijodning har bir yo'nalishi - nazm, nasr va dramaturgiya mohiyat e'tibori bilan mustaqillik davrining mavzulari bilan boyidi. Bu holat o'zbek adabiyoti tarixida yangi davr boshlanganidan darak beradi. Mustaqillik yillarida o'zbek

¹ Arziqulov A. U.,(2003), Interfaol usullar. Samarqand. 128



she'riyati istiqlol yillarida o'ziga xos yangi adabiy estetik hodisa sifatida namoyon bo'la boshladi. Badiiy ijod maydonida shoirlar uchun erkin ijodiy muhit yuzaga keladi. Adiblar o'z ma'naviy dunyosini, olam va odamga doir qarashlari, individual his-tuyg'ularini bor holicha taqdim qila boshlashdi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik./ B. To'xliyev, B. Karimov, K.Usmonova, — Toshkent.: "Davlat ilmiy nashriyoti", 2017
2. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik./ S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev, —Toshkent.: 2020
3. Tosheva O,(2012). Taqdimot materiallaridan foydalanish usullari. Til va adabiyot ta'limi,-Toshkent, 12-son.
4. "Umumta'lim metodikasi " jurnali, 2018 1-,2-,3-,4-sonlar.
- 5.Arziqulov A. U,(2003), Interfaol usullar. Samarqand. 128